

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN
HAL QILUV QARORI

Qarshi shahri

2023 yil 10 noyabr

Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi J.Achilov raisligida, sudya yordamchisi H.Absattorovning kotibligida, arizachi - Qashqadaryo viloyat soliq boshqarmasining qarzdor - "SIFAT AGRONEFTGAZINVEST" xususiy korxonasini soddalashtirilgan tartibda to'lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi arizasi bo'yicha ishni arizachi vakili - A.Doniyorov (ishonchnoma asosida) ishtirokida sud binosida ochiq sud majlisida ko'rib chiqib, quyidagilarni

a n i q l a d i:

Arizachi - Qashqadaryo viloyat soliq boshqarmasi sudga ariza bilan murojaat qilib, qarzdor - "SIFAT AGRONEFTGAZINVEST" xususiy korxonasini soddalashtirilgan tartibda to'lovga qobiliyatsiz deb topishni so'ragan.

Sud majlisida ishtirok etgan arizachi vakili tushuntirish berib, qarzdorning budjet oldida qarzdorligi mavjudligini, qarzdorning mol-mulki yo'qligi haqida tegishli tashkilotlardan ma'lumotlar olinganligini, soliq qarzini undirish bo'yicha ko'rilgan choralar natija bermaganligini bayon qilib, arizani qanoatlantirishni so'radi.

Tegishli ravishda oldindan xabardor qilingan bo'lsa-da, javobgar vakili sud majlisiga kelmadi.

Mazkur holatda sud O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (keyingi o'rinda - IPK)ning 170-moddasiga asosan ishni kelmagan taraf vakilining ishtirokisiz ko'rib chiqishni lozim topadi.

Shunga ko'ra sud taraf vakilining ish bo'yicha tushuntirishlarini eshitib, ish hujjatlari bilan birga o'rganib chiqib, dalillarga huquqiy baho berib, quyidagilarga asosan ariza talabini qanoatlantirishni lozim topadi.

Ish hujjatlari va sud muhokamasi davomida aniqlangan holatlarga ko'ra qarzdorning budjet va budjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi jami qarzdorligi 12360627,07 so'mni tashkil qilgan.

Qarzdorlikni undirish haqida ko'rilgan choralar natija bermaganligi sababli Majburiy ijro byurosi shahar (tuman) bo'limining qarori bilan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning 40-moddasi 1-qismi 3-bandiga asosan ijro hujjati undiruvchiga ijro etilmasdan qaytarilgan.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat boshqarmasining 2023 yil 9 noyabrdagi xatiga ko'ra qarzdor bo'yicha sud tugatish boshqaruvchiligiga S.Ergashevaning nomzodi ko'rsatilgan.

"To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasini birinchi qismiga ko'ra, to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari quyidagilardan iborat: vaqtincha to'lovga qobiliyatsizlik - agar tegishli majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran uch oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, shaharni tashkil etuvchi korxonalar hamda unga tenglashtirilgan korxonalar tomonidan esa olti oy ichida bajarilmasa, sudga murojaat etish sanasida qarzdorning pul majburiyatdari bo'yicha kreditor talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig'imlar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi; doimiy to'lovga qobiliyatsizlik - agar sudga ariza berish sanasidagi va ariza berilgan yilning boshidagi hisobot davrida, agarda ariza yilning birinchi choragida berilgan bo'lsa, o'tgan yilning boshidagi hisobot



davrida qarzdorning majburiyatlari uning aktivlari qiymatidan oshib ketgan bo'lsa.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida, ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishlar soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilayotganda, jismoniy shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda qo'llanilmasligi belgilangan.

"To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 241-moddasini birinchi qismida, o'z faoliyatini tugatgan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki tugatilayotgan yuridik shaxsning rahbari hozir bo'lmagan va ularning joylashgan yerni (yashash joyini) aniqlashning imkoni bo'lmagan taqdirda, hozir bo'lmagan qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'g'risidagi ariza, kreditorlik qarzi miqdoridan qat'i nazar, kreditor, vakolatli davlat organi, davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilishi mumkinligi belgilangan.

Ushbu Qonunning 242-moddasini to'rtinchi qismida, tugatish boshqaruvchisi o'ziga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlarni hozir bo'lmagan qarzdorning bankrotligi haqida yozma shaklda xabardor qiladi, ular xabarnomani olgan kundan e'tboran bir oylik muddatda tugatish boshqaruvchisiga o'z talablarini taqdim etish mumkin.

Ushbu moddaning beshinchi qismida, tugatish boshqaruvchisi hozir bo'lmagan qarzdorning mol-mulkini aniqlagan taqdirda sud mazkur boshqaruvchining iltimosnomasiga ko'ra to'lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomilini tugatish hamda to'lovga qobiliyatsizlikning ushbu Qonunda nazarda tutilgan umumiy tartib-taomillariga o'tish haqida ajrim chiqarishi mumkinligi belgilangan.

"Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning ilovasi, ya'ni Davlat boji stavkalarining miqdorlarini ikkinchi bandini "v" kichik bandida, tashkilotlar va fuqarolarni to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'g'risidagi arizalardan BHMning uch baravari miqdorida davlat boji undirilishi belgilangan.

Yuqoridagilarga ko'ra, sud arizani qanoatlantirib, qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb topishni hamda sud xarajatlarini qarzdor zimmasiga yuklashni lozim topadi.

Binobarin, "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5, 51, 52, 140, 241, 242-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 118, 128, 176-179, 186-moddalarini qo'llab, sud

q a r o r q i l a d i:

Qashqadaryo viloyat soliq boshqarmasining arizasi qanoatlantirilsin.

Qarzdor "SIFAT AGRONEFTGAZINVEST" xususiy korxonasi to'lovga qobiliyatsiz deb topilsin va tugatishga doir soddalashtirilgan tartibda ish yuritish boshlansin.

Qarzdor "SIFAT AGRONEFTGAZINVEST" xususiy korxonasining tugatish boshqaruvchisi etib S.Ergasheva tayinlansin.

Sud tugatish boshqaruvchisi zimmasiga:

- qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil etish; (muddat – 20 kun)
- kreditorlar yig'ilishi va kreditorlar qo'mitasini chaqirish; (muddat -1 oy)
- qarzdorning debitor qarzlarni undirish choralarni ko'rish; (muddat -1 oy)
- qarzdor tugatilganda uning xodimlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilinajagini to'g'risida ularni xabardor etish; (muddat – 3 kun)
- kreditorlarning talablari reestrini yuritish va ularning talablarini ko'rib chiqish; (tugatish ishlari davomida)
- qarzdorning uchinchi shaxslarda turgan mol-mulkini qidirish, aniqlash va qaytarishga qaratilgan choralarni ko'rish; (muddat -1 oy)
- qarzdorning qonun hujjatlariga muvofiq saqlanishi lozim bo'lgan hujjatlarini lashga topshirish; (tugatish ishlari yakuni bo'yicha)



- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.08.2013 yildagi 224-sonli "Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi"gi Qaroriga asosan soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish yoki qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari mavjudligi yoki mavjud emasligiga baxo berib xulosa tayyorlash va mazkur xulosani kreditorlar yig'ilishi hamda sudga taqdim etish; (muddat -1 oy)

- kreditorlar talablarini "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasida belgilangan tartibda qondirish va ushbu Qonunda nazarda tutilgan barcha tugatish ishlarini tashkil qilish;

- olib borilayotgan tugatish ishlari yuzasidan oraliq hisobotlarini har 15 kunda hamda yakuniy hisobotni 2024 yil 10 fevralga qadar topshirish majburiyati yuklatilsin.

Qarzdor "SIFAT AGRONEFTGAZINVEST" xususiy korxonasidan arizachi Qashqadaryo viloyat soliq boshqarmasi foydasiga 33 000 so'm pochta xarajati;

Respublika budjetiga 990 000 so'm davlat boji undirilsin.

Hal qiluv qarori darhol ijroga qaratilsin.

Ijro varaqasi berilsin.

Hal qiluv qarori nusxasi tomonlarga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasiga, Majburiy ijro byurosi bo'limiga va tugatish boshqaruvchisiga yuborilsin.

Arizachining to'lov topshiriqnomasi bilan sud tugatish boshqaruvchisi ish haqqi uchun to'langan 990 000 so'm ish haqqi mazkur ish bo'yicha tugatishga doir ish yuritishni yakunlash haqidagi ajrim asosida sud tugatish boshqaruvchisiga to'lab berilishi qayd etilsin.

Qashqadaryo viloyat soliq boshqarmasiga "SIFAT AGRONEFTGAZINVEST" xususiy korxonasidan davlat budjetiga yetkazilgan zararni qarzdor rahbari va uning ta'sischilaridan subsidiar tartibda undirish haqida fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat etish huquqi mavjudligi tushuntirilsin.

Mazkur hal qiluv qaroridan norozi tomon bir oy muddat ichida apellyatsiya tartibida shikoyat berishi (prokuror protest keltirishi) mumkin.

Sudya

J.Achilov

